

ARAB TILIDA MAF'ULLARNING TURLARI: SINTAKTIK VA SEMANTIK TAHLIL

Qurbonqulova Mohira

*Alfraganus Universiteti, Filologiya fakulteti,
Sharq filologiyasi kafedrası, Arab filologiyasi
yo'nalishi 4-kurs talabasi*

Jo'rayeva Madina

*Alfraganus Universiteti,
Sharq filologiyasi kafedrası dotsent v.b. (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tilidagi maf'ullarning sintaktik va semantik xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Maqolada maf'ullarning ta'rifi, ularning turlari, vazifalari hamda jumla mazmunini aniqlashdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot asosiy manbalardagi nazariy qoidalar va zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida olib borildi. Tahlil natijasida maf'ullar arab tilida fe'l markazida quriladigan gaplarning mazmunini aniqlashda muhim komponent ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Maf'ullar, sintaktik xususiyatlar, semantik tahlil, gap tuzilishi, lingvistik yondashuv, arab tili.

Abstract . This article is devoted to the study of the syntactic and semantic features of maf'ul (objects) in the Arabic language. It discusses the definition of maf'ul, their types, functions, and their role in determining the meaning of a sentence. The research is based on theoretical principles found in primary sources as well as modern linguistic approaches. The analysis revealed that maf'ul functions as a significant component in clarifying the meaning of sentences structured around the verb in arabic.

Keywords: Maf'ul, syntactic features, semantic analysis, sentence structure,

verb-centered linguistic approach, Arabic language.

Kirish. Arab tili sintaksisi fe'l markazida qurilgan bo'lgani bois, maf'ullar jumla mazmunini to'liq anglashda juda muhim o'rin egallaydi. Maf'ul fe'lning ma'nosini to'ldiradi, uni kengaytiradi yoki ma'no jihatdan izohlaydi. Bu hodisa arab tilining sintaktik tizimini boshqa tillardan farqlab turadi. Biz bu maqolada maf'ullarning turlarini o'zbek tilida sodda, ilmiy va tushunarli tarzda ifodalashga harakat qilamiz.

Maf'ul — arab tilidagi fe'l bilan bog'liq holda keladigan, fe'l ma'nosini to'ldiruvchi yoki izohlaydigan mansub so'zdir. Tushum kelishigidagi ismlar – ya'ni maf'ullar, to'ldiruvchining belgilarini o'z ichiga oladi. Tushum kelishigidagi ismlar beshta, ular **المفعول مطلق** -o'z o'zini to'ldiruvchi, **المفعول به** vositasiz to'ldiruvchi, **المفعول** o'rin va payt holi, **المفعول لاجله** sabab va maqsad holi, **المفعول معه** birgalik to'ldiruvchisidir.⁸⁹

Arab tilida fo'ilning ish harakati ifodalangan ism maf'ul bihi ya'ni, vositasiz to'ldiruvchi deyiladi. Maf'ul bihi asosan fo'ildan so'ng keladi. Arab tilida fe'l kesimli gaplarda, gapning ega va kesimidan keyin maf'ul bihi kelib tushum kelishigida turadi. **كتب الطالب الواجب** Talaba vazifani yozdi.

Ba'zan maf'ul bihi foildan avval ham kelishi mumkin. **اياك نعبد** (sengagina ibodat qilamiz) (Fotiha surasi, 4- oyat) kabi.⁹⁰ Jumladagi **ناعبده** so'zi fe'l, **اياك** esa, maf'ul bihi(vositasiz to'ldiruvchi)dir. Maf'ul bihining foildan avval kelishining ikkinchi sababi, vojiblik (shart) jihatidandir. Bunga quyidagi misollarni keltirish mumkin; **من رايته** kimni ko'rding? kabi. Maf'ul bihi ya'ni vositasiz to'ldiruvchi haqida Abdurahmon Jomiy quyidagicha ta'rif beradi. "Foilning ish –harakati ifodalangan ism maf'ul bihi (vositasiz to'ldiruvchi) deyiladi. Maf'ul bihi ko'proq foil (feliy jumlaning egasi)dan so'ng keladi".⁹¹

⁸⁹ Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat nashriyoti, 1997. 1-jild, B.352.

⁹⁰ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf: Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi " Hilol Nashr Toshkent 2022 yil Fotiha surasi 1-bet

⁹¹ Jo'rayeva M. Abdurahmon Jomiy "Al-Favoidu-z-Ziyo'iyya " asarining lingvistik tadqiqi. Monografiya. Toshkent: 2023. Nashriyoti. B.80

Maf'ul mutloq feldan keyin keladigan masdar bo'lib noaniq holatda tushum kelishigida ifodalanadi va felning ma'nosini ta'kidlab, xilini va sonini bayon qilish uchun keladi. Maf'ul mutlaq uch qismga Birinchi ish harakatni ta'kidlash ma'nosida *جلست جلوسا* (o'rnashib o'tirdim).⁹²

Ikkinchi ish harakatning qay tarzda bajarilganini va xilini sifatini bildiradi. *جلست جلسة* (o'rnashib o'tirdim) jumlasini keltiradi. Bu yerdagi maf'ul mutlaq bo'lgan *جلس جلوسا* fe'lining ma'nosini ta'kidlab kelmoqda. Ikkinchi ish harakatning qay tarzda bajarilganini, ya'ni sifatini bildiradi. *جلست جلسة* (viqor bilan o'tirdim). Uchinchi, *جلست جلسة* - Bir marta o'tirdim. Ish harakatning adadi, ya'ni necha marotaba takrorlanganini bildiradi. Maqsudiy Ahmad Xodiyning "Istiqmal" navh qoidalari asarida ham "Maf'ul mutlaq" haqida Jomiyning fikriga yaqin bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan. Maf'ul mutlaq felning ma'nosini ta'kidlash, ish-harakatning ko'rinishini, sonini aniqlash uchun ishlatiladi. Maf'ul Mutlaq (o'z o'zini t'oldiruvchi)ning foili (feliy jumlaning egasi) simoiy ravishda tushirilishi shart deyiladi. Jomiyning fikriga ko'ra, bu arablarga xos bo'lgan qoida bo'lib, simoviy degani, og'zaki qanday eshitilgan bo'lsa, istemolda xam shunday qabul qilinishiga aytiladi. Bunga misol qilib; *وسقاك الله سقيا* kabi. Aslida esa, *رعاك* - Alloh seni serob qilsin. (Alloh seni sug'orib, gullatib, yashnatibo'ysin), yok *رعاك* - Alloh seni rioya qilsin yani "tavbangni qabul qilsin" (Bu jumlar arablarda hayrli duolarda qo'llanadi) bo'lib jumladagi fel va foillar tushirib qoldirilgan.

Birgalik to'ldiruvchisi mavzusi shunday ya'ni *المفعول معه هو مذكور بعد الواو لمصاحبة* "Birgalik to'ldiruvchisi dan so'ng lafzan yoki manan mavjud bo'lgan felning tasirida uchrab birgalikni ifodalash uchun keltirilgan so'zdir". Arab tilshunosligida *المفعول معه* - tushum kelishigidagi ism bo'lib, u ish harakatni biror - bir obyekt yoki subyekt bilan bir vaqtda sodir etgan shaxs yoki predmetni ko'rsatadi. Bunday so'z *مع* predlogi ma'nosida ishlatiladigan *واو* va yiklamasidan keyin keladi. Bu vav - *واو المعية*. yani birgalik vav i deb ataladi. Masalan; *تسير و طريقك*

⁹² Jo'rayeva M. Abdurahmon Jomiy "Al-Favoidu-z-Ziyo'iyya" asarining lingvistik tadqiqi. Monografiya. Toshkent: 2023. Nashriyoti. B.80

هذا – sen bu yo'l bilan yurasan kabidir.⁹³

Maf'ul – fihi felning qaysi vaqtda yoki qaysi o'rinda ifodalanganini ko'rsatadi, uning nasb (tushum kelishigida) bo'lishining sharti taqdirida في bo'lishidir. Ya'ni (في ma'nosida keladi) Yuqoridagi ta'rifdan shuni tushunish mumkinki, maf'ul fihi (vositasiz to'ldiruvchi) yo zamonni yokida makonni anglatadigan ismdir. Arab tilida ظرف so'zi Ravish; xolni ifodalovchi so'z ma'nosini beradi. Zamonni anglatadigan ismga ظرف الزمان, makonni anglatadigan ismga ظرف المكان deyiladi. Masalan - حفظت زينب الدرس صباحا اماما معلم “Zaynab darsni ertalab, o'qituvchining oldida yod oldi”. Bu misolda صباحا (ertalab) so'zi darsni qaysi vaqtda yodlanganini bildirsa (معلم) o'qituvchining oldida esa dars yodlash qaysi o'rinda bo'lganini bildirgan. Shuning uchun bu ikki qism maf'ul fihi (o'rin – payt holi) bo'ladi. B.M Grande ham Jomiyning fikrini tasdiqlab, maf'ul fihi – fe'ling qaysi vaqtda yoki qaysi o'rinda ifodalanganini ko'rsatishini takidlaydi. Shuningdek, Grande o'rin payt hollarini gap tarkibida quyidagi shakllarda kelishini aytib o'tadi. 1) umumiy vaqtni ifodalaydi, masalan نهار - kunduzi , مساء - kechqurun . 2) aniq vaqtni ifodalaydi, masalan اثنتي عشر يوم الجمعة (Juma kuni keldim). 3) Vaqtning davomiyligini ifodalaydi, masalan; ثلثة ايام (uch kun yo'l yurdim). 4) Umumiy yo'nalishlardan birini anglatadi masalan; يسارا - chapga, o'nga, - يمين. Shuningdek, bu guruhga ot – predloglari ham kiradi, (Ot predloglari o'zining otlik xususiyatini, yo'qotmagan, ot o'rnida qo'llanishi mumkin bo'lgan, shu bilan birga predlog vazifasida ham kela oladigan so'z bo'lib, bular predlog vazifasida ham keladi). Masalan ortida - خلف , ustida - فوق , ostida - تحت , kabilar. Va yana Jomiy – “Payt holi har doim tushum kelishigida keladi, “O'rin holi” esa har doim ham tushum kelishigida kelavermaydi. O'rin hollaridan faqatgina mavxumlari, yani olti tomondan birini anglatgan so'zlarga tushum kelishigida ishlatiladi. Ular oltita; اماما - oldida, qoshida, خلف - ortida, يمين - o'ng , chap - شمال , ustida - فوق , ostida - تحت kabi ma'nolarni anglatuvchi so'zlardir.⁹⁴

“Al- Favoidu – z-Ziyo'iyya” asarida sabab va maqsad holiga shunday ta'rif beradi.

⁹³ Jo'rayeva M “Abdurahmon Jomiy Al-Favoidu Az-ziyo'iyya Asarining Lingivistik Tadqiqi” Toshkent 2020 B.81

⁹⁴ Grande B.M. курс арабской грамматика в сравнительно- историческом освещении- М; 1998 . – Б. 340, 341,342

Maf’ulun lahu yoki maf’ulun liajlihi deb felning bajarilish sababini bildirib kelgan so’zga aytiladi. Masalan; ضربته تاديبا - uni odob berish maqsadida urdim”. Jomiyning ta’kidlashicha ضربته لتاديب - jumlasida ضربته تاديب ko’rinishida bo’lgan. Jumladagi maf’ul liajlihining ل ni tushurib qoldirib, tushum kelishigida ishlatilishining sababi, jumladagi maf’ul liajlihining ham, undan avvalgi ish-xarakatning ham bajaruvchisi aynan bir shaxs bo’lganligidir. Ibn Molik esa;“ Maf’ul lahu – bu ish – xarakatning bajarilish sababini bildiruvchi, egaga tegishli bo’lgan, shu bilan birga ma’nosi bajarilayotgan ish-xarakat bilan bir vaqtda sodir bo’ladigan masdardir”- deya ta’rif beradi. Demak maf’ulun lahu yani maf’ulun liajlihi xarakatning bajarilish sababini bildirar ekan.

Quyida maf’ullar mavzusini yaxshiroq tushunish uchun jadval va har bir maf’ul turiga misollar keltirib o’tamiz;

No	Tushum kelishigidagi ism	Misol
1	Vositasiz to’ldiruvchi- المفعول بيه	الاحسان يقطع اللسان
2	Kuchaytiruvchi to’ldiruvchi – المفعول المطلق	فهمت الدرس فهما
3	Sabab yoki maqsad holi – المفعول لاجله	زين البيت اكراما للضيوف
4	Payt yoki o’rin holi – المفعول فيه	اذهب اليك ليلة الجمعة
5	Birgalik –ma’nosidagi to’ldiruvchi – المفعول معه	سرت و الجبل برق السحاب و المطار
6	Istisno qilingan so’z – المستثنى بالا	تصدا كل المعادن الا الاذهب
7	Holat holi – الحال	قدم الحجاج المدينة مشاة
8	Aniqlashtiruvchi - التميز	باع الكتبي ستين كتابا
9	Undalma – المنادى	ايا عبد الكريم
10	Kana va unga o’xshash fel – خبر كان واخواتها	كان البر شديد اصبحت الرياح
11	Inna va unga o’xshash	ان العلماء مكرمون

	اسم ان واجوتها – yuklamaning ismi	
--	-----------------------------------	--

Maf'ullar gapning semantik tuzilishini to'liq shakllantiradi. Har bir tur fe'l bilan turlicha ma'no munosabatini hosil qiladi. Maf'ul bih eng keng tarqalgan bo'lsa, maf'ul fihi tasviriy matnlarda, maf'ul li-ajlihi sababnatijamunosabatida, maf'ul ma'ahu esa hamroh harakatni ko'rsatishda muhim. Maf'ul mutlaq esa gapga stilistik kuch bag'ishlaydi. Arab tili sintaksisida maf'ullar tizimi gapning ma'no ustunini tashkil qiluvchi eng faol unsurlardan biri deb hisoblayman. Har bir maf'ul turi fe'l ma'nosini muayyan jihatdan to'ldiradi, kengaytiradi, yoki aniqlashtiradi. Tadqiqotlarim davomida shuni guvohi bo'ldimki, maf'ulsiz gap, ko'p hollarda mazmunan to'liq bo'lmaydi, fikr esa noaniq ko'rinishga ega bo'ladi. Ayniqsa, fe'lning kimga yoki nimaga yo'nalgani noma'lum bo'lib qoladi. Natijada tinglovchi fikrni to'liq aniqlay olmaydi.

Xulosa. Arab tilidagi maf'ullar fe'l markazidagi jummalarni mazmunan boyitadi va aniq fikr ifodalashga xizmat qiladi. Maf'ullar turlarini to'g'ri anglash arab tili sintaksisini chuqur o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi. Yuqorida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, arab tili sintaksisida maf'ullar gapning sematik va struktur asosini tashkil etuvchi muhim bo'g'indir. Maf'ullarning mavjudligi fe'l ma'nosini to'ldiradi, aniqlaydi hamda nutqning mantiqiy izchilligini ta'minlaydi. Ularning har bir jumladagi ma'no qatlamini turlicha kengaytiradi. Maf'ul fihi – harakatning makon zamon doirasini belgilaydi, maf'ul li-ajlihi – sababiylikni ochadi, maf'ul ma'ahu – birga sodir bo'lgan harakatni ko'rsatadi, maf'ul mutlaq- esa fikrni kuchaytiradi va uslubiy ta'sirni oshiradi. Maqola davomida misollar asosida ko'rsatib o'tganimizdek, har bir tur o'zining sintaktik o'rniga ega. Arab tilini o'rganayotgan o'quvchilar uchun esa maf'ullarni chuqur o'zlashtirish, gap tuzish ko'nikmasini kuchaytiradi, matn tahlilini esa ancha yengillashtiradi. Shuningdek, tadqiqot davomida kuzatildi-ki, qadimgi navhiy manbalar bilan zamonaviy lingvistik izlanishlar o'rtasida uyg'unlik mavjud bo'lib, maf'ullarning asosiy talqinlari asrlar davomida saqlanib kelmoqda. Bu esa arab tili sintaktik tizimining mustahkamligi, nazariy asoslarning puxtaligi va kelajak tadqiqotlar

uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmon Jomiy Al- Favoidu –z- Ziyoiyya. O'ZR FASHI. Qo'lyozma. 9665.58a sahifa, 9665, 616 sahifa, 62 , 66 ,86a, 90a, 92b, 96a, 102a, 110a, 113a sahifa.
2. Xifni Nosif, Muhammad Diyab, Mustafu Tamum, Muhammad Solih. Ad-durusun- nahviyab. Arabchadan A. Xikmatov tarjiması. Movorounnahr – T; 2006 – B-82.
3. Quronı karım ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur .- T.; Toshkent idlom universiteti nashriyot – matbaa birlashmasi , 2009.
4. Nosirov O, Yusupov M, AN-Na'im . Arabcha lug'at – T.; A,Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti ,2003 .- B 513 .
5. Grande B.M. курс арабской грамматика в сравнительно- историческом освещении- M; 1998 . – Б. 342
6. Ibrohimov N. Yusupov .M. Arab tili grammatikasi .- T ; O'zbekiston milliy ensiklapedyasi Davlat nashriyoti , 1997 . I jild-B . 352
7. Mirzayev M. O'zbek tili-T,; 1970 .- B 101
8. Jo'rayeva Madina. Abdurahmon Jomiy “Al-favoidu-z-ziyoiyya “ asarining lingvistik tadqiqi . B.292
9. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРХОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ–ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
10. Jo'rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.
11. Jo'rayeva, M. A. “SHARHI MULLO” A RARE SOURCE.
12. Jo'rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.

13. Jo‘Rayeva, M. (2025). XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR:(ARAB TILI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 222-224.
14. Жўраева, М. (2022). «Ал-фавоиду-з-зиёийа» ва «Кофия» асарларида феъл туркумининг ёритилиш принциплари. *Востоковедение*, 14(2), 58-65.
15. Жураева, М. А. (2013). Некоторые особенности склонения имен в грамматическом комментарии Абдурахмана Джами «Шарх мулла». *Вестник Челябинского государственного университета*, (23 (314)), 121-125.
16. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahw” asarida grammatik kategoriya talqini va uning o‘zbek tilshunosligidagi muqobillari*. In *Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida: Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari* (pp. 136–139). Alfraganus University.
17. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahv” asarining Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari: Tekstologik va metodologik tahlil*. *Oriental Journal of Philology*, 6(I3), 588–599. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-I3-60>
18. Жураева, С. Х. (2024). Interaction of youth slang and cultural values of the people. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(4), 119-126.
19. Жураева, С. Х. (2024). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОЛОДЁЖНОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(2), 531-536.
20. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she‘riyatda Bobur g‘azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
21. Jurayeva, N. G. (2022). O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BAYT POETIKASI TUSHUNCHASINING TUTGAN O‘RNI VA TIPALOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 729-733.